

**UTAEVA FERUZA
XOLMAMATOVNA**



BUKHARA STATE
UNIVERSITY,
SENIOR TEACHER OF THE
HISTORY DEPARTMENT OF
BUKHARA

**PRESS COVERAGE OF THE HISTORY OF THE
CONSTRUCTION OF THE BUKHARA TEXTILE
INDUSTRY**

**ОСВЕЩЕНИЕ В ПРЕССЕ ИСТОРИИ СТРОИТЕЛЬСТВА
БУХАРСКОЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**BUXORO TO'QIMACHILIK SANOATI QURILISHI
TARIXINING MATBUOTDA YORITILISHI**

Abstract: The article analyzes the work of builders on the construction of a yarn production plant in Bukhara, information about the launch of the first weaving factory based on sources and press materials.

Key words: Light industry enterprise, cotton, cocoon, spinning and weaving, finishing, gas, textile, Bukharskaya Pravda, project, specialists.

Аннотация: В статье анализируются работы строителей на строительстве комбината по производству пряжи в Бухаре, информация о запуске первой ткацкой фабрики на основе источников и материалов прессы.

Ключевые слова: Предприятие легкой промышленности, хлопчатобумажная, коконная, прядильно-ткацкая, отделочная, газовая, текстильная, Бухарская правда, проект, специалисты.

Annotatsiya: Maqolada Buxorodagi ip-gazlama kombinati qurilishida quruvchilarning ishlari, birinchi to'quv fabrikasining ishga tushirilishi haqidagi ma'lumotlar manbalar va matbuot materiallari asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar:: Yengil sanoat korxonasi, paxta, pilla, yigiruv-to'quv, pardozlash, gazlama, to'qimachilik, Buxoro haqiqati, loyiha, mutaxassislar.

Kirish (Introduction)

Bizning xalqimiz uzoq yillar davomida paxta, pilla kabi mahsulotlarni yetishtirish bilan shug'ullanib, butun olamga o'zining halol va sermashaqqat mehnati bilan tanilgan. Zahmatkash, fidoiy inson Bo'rixon Omonov Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurib berishini hukumatga xalqimiz nomidan iltimos qilib so'ragan. Oradan o'n yillar o'tib, Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurish haqida farmon chiqadi. Ittifoq Yengil sanoat vazirining 1969 yil 24 mayda Buxoroda to'qimachilik kombinatini qurilishi haqidagi texnik loyiha tasdiqlandi. Loyihalashni Toshkentdagi GPI-4 (4-son Davlat loyihalashtirish institutiga topshirildi). Loyihalashtirish ishlari uch yil davom etgan va nihoyat, 1971 yilda qurilishga ruxsat berilgan. GPI-4 Direktori Nurmatov va bosh loyihachi kombinat qurilishi loyihasiga javobgar shaxs Pogrebinskiy Oskar Nayimovich nazoratiga topshirildi [1,17: 25-26, 142-144].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bundan tashqari 1970 yilda 1960 yilga nisbatan 25 mln. metr, 1965 yilga nisbatan esa 44 mln. metrga to'qimachilik hajmi kamaydi. Shu sababli, Ittifoq hukumati 60-yillar ohiri 70-yillar boshida har biri umumiy quvvati 240 ming urchuq va 6000 to'quv dastgohga ega ikkita yigiruv-to'quv va pardozlash fabrikasi bilan yiliga 109 mln. metr gazlama ishlab chiqarishga qodir bo'lgan Buxoro va Andijon ip-gazlama kombinatlari qurilishiga ruxsat berdi [2,18: 109, 5-9].

Maydoni 76 gektar yerda qurilish ishlari olib borilgan. 13–15 mingga yaqin ishchi va xizmatchilar ikki-uch navbatda ish olib borganlar. Toshkentdan, Chirchiqdan, Chlyabinskdan, Navoiydan va boshqa joylardan mutaxassislar jalb qilindi. Yer usti va yer osti muhandislik tarmoqlari - kabellar, suv, gaz, kanalizatsiya, par-bug', tom tepasida yurish uchun muljallangan temir panjarali yo'laklar, havo quvurlari, bularning hammasi hisobga olinib muljallangan loyiha asosida qurilish ishlari olib borildi [3: 1-4].

Korxonalar qurilish ishlari 1971 yillarning eng yuqori texnika texnologiyalari asosida olib borildi. Korxonalar qurilish ishlarida juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirganligini korxonalar quruvchisi Mahmudjon Zokirov quyidagicha ta'kidlaydi: Qimmatbaho uskunalar jumladan 2 ta 5 tonnalik avtopogruzchik, 1 ta avtokran, 4 ta eski yuk mashinasi olib kelindi, biz ularni ish boshlanguncha vaqtincha saqlashimiz kerak edi, lekin bizda saqlash uchun qurilish qonun qoidalariga mos keladigan joy yo'q edi.

Cheksiz azob uqubatlar bilan qurib bitkazilgan Buxoro ip-gazlama kombinati 1973 yilning oxirgi kunlarida davlat nazorati ostida qabul qilib olindi. O'zbekiston yengil sanoat vazirining muovini Obid Sakiyev nazorati ostida qabul qilish Ittifoq yengil sanoati vazirining 1973 yil 15 maydagi 250-sonli buyrugi asosida tayinlangan edi. Qabul qilish komiteti a'zolari Kombinatar qurilishi direktori S.B.Baratov, bosh loyihachi O.N.Pogrobinskiy hamkorligida qabul qilish nazorati olib borildi. Tekshirish natijasida aytilgan kamchiliklar tuzatilib, 1973 yil fevral oyining boshida birinchi kompleks majmuasi ishga tushirildi. 1973 yilning 1-choragida muljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishga kelishildi va qaror qabul qilindi. Kengashda O'zbekiston Qurilish vaziri G.S.Sobirov, yengil sanoat vaziri F.S.Xodjayev viloyat rahbarlari, qurilish montaj, ishlab chiqarish, sozlovchi, energoresurslar tashkilotlari rahbarlari qarorga qo'l qo'yidilar. 1973 yilning 17–20 fevral kunlari qurilish va montaj ishlariga yetishmaydigan mahsulotlar va uskunalarni Moskvadan olib kelish uchun borilgan kunlari, Buxoro ip-yigiruv sanoat korxonasi qurilishi davom etayotgan qismida yong'in

sodir bo'lgan. Yong'in chiqqan joy katta maydonni tashkil etgan. Payvandlash paytida yong'in sodir etilgan. Ehtiyotsizlik yong'inga sabab bo'lgan. Yong'in 40–45 minut davom etgan. Kombinatda bo'lgan fojiani Respublika rahbari Sh.Rashidov “Hech kim zarar va talofat ko'rgani yo'q” deb markazga xabar beradi. Ittifoq rahbari tomonidan bir yil ichida qayta ta'mirlanib, yil oxirigacha ishga tushirilsin deb topshiriq berilgan. Qurilish shtab boshlig'i, Buxoro shahar rahbari Umar Hamroyevich Kamolov tunu-kun to'qimachilik korxonasini qayta ta'mirlash ishlariga bosh-qosh bo'ldi [4,5, 16: 3,5, 1162-1168]. Buxoro tumanlarining mehnatkashlari shanbaliklarda beminnat yordamlari bilan to'qimachilik korxonasini qurayotgan quruvchilarga madad berib turdilar. Bundan tashqari Respublika qurilish montaj tashkilotlari yaqindan yordamlashdilar.

Buxoro ip gazlama kombinati qurilishi eng mas'uliyatli va qiyin pallada boshlandi. Ko'mirchi va montajchilarning qariyb ikki mehnati samarasini sinovdan o'tkazishning payti kun sayin qiyinlashib bormoqda. Shuning uchun ham binokor va montajchilar ulkan korxonaning birinchi yigiruv tikuv fabrikasini foydalanishga topshirish uchun qolgan qisqa muddatlarda barcha dastgohlarni ishga solib qo'yish paytida kunni tunga ulab mehnat qilishdi. Birinchi-yigiruv-tikuv fabrikasi va unga bog'liq bo'lgan barcha obyektlar ulkan bir kompleksni bunyod etish uchun 16 ming tonna metall konstruksiyalari sarflandi. Fabrikaga 600 mingdan ortiq turli xil elektr boshqaruv pultrlari o'tkazildi. Korxonaning avtomatik sistemalarini boshqaradigan 400 ta pult elektr tarmg'idan foydalanishni bir maromga soladigan 96 ta pult montaj qilindi, 19 million sumlik turli xil dastgohlar o'rnatildi. Bu uskunalarni mamlakatimizning yuzlab shaharlari sanoat korxonalari ishlab chiqargan[6: 19-20].

To'qimachilik stanoklarining bir qismi Germaniya Demokratik Respublikasida tayyorlangan. 163-qurilish trestining barcha bo'linmalari va qudrat tashkilotlarining binokorlari 93-ixtisoslashgan trestning serg'ayrat montajchilari mehnati turibdi. Beton poydevorlar ko'tarish ham tugadi. 93-ixtisoslashtirilgan trestning Buxorodagi mexanizatsiyalashtirilgan ko'chma montaj ishlarini tugatib, barcha kuchlarini bug' xo'jaligini barpo qilishga qaratdi. Bug' qozoqxonalardagi asosiy uskunalar montaj qilinib tugatildi va ular sinovdan o'tkazildi. Montajchilar va sozlovchilar: Qodir Jumaniyozov, Qodir Qulopdikov va Nuritdin Nurullayev boshchiligidagi montajchilar brigadalari alohida mardlik va matonat ko'rsatib ishladilar. Ularning g'ayrati tufayli yillik montaj ishlari topshirig'i bajarilgani haqidagi imzo chekildi. 100 mingdan ortiq yigiruv urchig'ini o'rnatdilar. Ularni sozlash ishlarini tugatib, sinash maqsadida dastlab mahsulotni ishlab chiqarishga kirishildi [7: 42-44].

Toshkent va Farg'onadagi to'qimachilik kombinatlarida kasb o'rganib kelgan Oliy Halimova, Muhabbat Ne'matova, Gulchehra Rajabova singari o'nlab yosh to'qimachilar mana shu dastgohlarni boshqarib Buxoro gazlamasini ishlab chiqarishdi. Uskunalarini ishga sozlashda Leningrad, Minsk, Olmaota shaharlaridagi boshqarmalardan kelgan 270 yuksak malakali montajchilar fabrika uskunalarini o'rnatdilar. Ularga S. Serbnikov, V. Balashov, A.P.Vezverxov, I. Kurochkin, V. Bashenov singari o'z kasbining mohir ustalari boshchilik qilishdilar [8: 74-80].

Ip-gazlama kombinati qurilishida ish boshlanishi bilanoq Buxoro shahridagi umumiy ovqatlanish trestining oltinchi birlashmasi qurilish maydonchasida oshxonada tashkil qildi. Oshxonada binokorlarning talabiga yarasha taomlar pishirilardi. Mohir pazanda Sulaymon Balayev, oshxonada xizmatchilardan Muattar Sultonova, Halima Rasulova zarbdorlarga yelib-yugurib, xizmat ko'rsatgan. Oshxonada ko'pgina jihozlar yetishmaydi, texnika uskunalarining yetarli emasligi ish unumiga salbiy ta'sir qilardi, taomlar sifatini talab darajasida saqlashga imkon bo'lmagan. *“Biz bir smenada ishlasak ham, 400–450 xo'randaga xizmat ko'rsatayapmiz. Achinarlisi shundaki, oshxonada taomlar tayyorlaniladi, bu ovqatlar aslini olganda maktab o'quvchilari uchun pishirilishi lozim. Zarbdor qurilish ishchilari jismoniy mehnat qiladilar. Ular uchun tayyorlanadigan taomlar darajasi ya'ni*

kalloriyasi kuchli bo'lishi lozim. Bu, shubhasiz, quruvchi-montajchilarning mehnat unumiga barakali ta'sir ko'rsatgan bo'lur edi", - deb yozadi oshxona pazandasi.

1973 yil 19 oktyabrda yong'inbφt so'ng erishilgan birinchi muvaffaqiyatlar ko'rini boshladi. Sababi, birinchi to'quv fabrikasining butun maydoni yopilib ishga tayyor degani edi. O'zbekiston Komunistik Partiyasining birinchi kotibi Sh.R.Rashidov Buxoro up-gazlama kombinatiga tashrif buyurdi va ishchilar, montajchilar bilan suhbat qildi, ularning korxonaga yong'inidan keyingi talofatni tezda bartaraf etganligi va korxonaga ish suratlarini yuqoriga chiqarishlari haqida topshiriq va vazifalar haqida suhbatlashdi [9: 1010-1018].

Birinchi to'quv fabrikasi ishga tushirildi yiliga 58 305 tonna ip yig'ladi va yiliga 41 million kvadrat metr gazlama to'qib chiqarish quvvatiga ega edi. Kombinatning qurulish ko'lami juda ulkan, ishlab chiqarish xonalarining maydoni qarib 12 gektarni tashkil qiladi. Ularda vatanimiz va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng zamonaviy yigiruv tikuv dastgohlari o'rnatildi. Unga 1609 dastgohi va 150000 yigiruv eshuv urchig'iga ega bo'lgan mashinalar o'rnatilgan. Ularda ikki mingdan ziyod tikuvchi xotin-qizlar mehnat qilgan. Bundan tashqari sexdagi ish jarayonlari televideniya sistemasi orqali boshqariladi. Kombinatning 3 ta maishiy xizmat ko'rsatish korpusi yechinish kiyinish xonalari, uchta oshxonadan iborat. Bu yerda to'quvchilar samarali mehnat qilishi va miriqib hordiq chiqarishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar muhayyo bo'lgan. Komsomol zarbdor qurilishini tiklashda quruvchilar va montajchilar qurilish industriyasining eng so'nggi yutuqlaridan mohirona foydalangan.

Mamlakatimiz yengil sanoat korxonasini bunyod etishda birinchi marotaba konveyer usuli qo'llanilishi ya'ni yirik bloklarning murakkab sistemalari shu yerda montaj qilinadi. Ana shunday bloklarni qo'llash qurilish sifatini oshirish imkoniyatini beradi. To'qimachilik korxonasi kengligini barpo etishda sovet ittifoqidagi ko'pgina sanoat korxonalarining kollektivlari yaqindan yordam ko'rsatdilar. Ular qurilish uchun zarur bo'lgan materiallar va asbob uskunalarni o'z vaqtida yetkazib berdilar. Bu esa binokorlarning o'z ustlariga olgan sotsialistik majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlashga imkon berdi [10: 143-144].

1973 yil avgust oylarida quvonchli kunlarda buxoroliklar Toshkent mashinasozlik korxonalarining ishchilariga o'zlarining minnatdorchiliklarini izhor qiladilar. Korxonaga bunyodkorlari kechayu-kunduz g'ayrat va ilhom bilan mehnat qildilar. Bu orada mexanizmlarning qurillashi bir daqiqa ham tinmaydi. Bunday ulkan yutuqni qo'lga kiritishda zarbdor yilning zarbdor bo'lgan komsomol va yoshlarning qo'shgan hissalarini ayniqsa katta bo'ldi. Anatoliy Konovalov, Shovqi Gadoev va boshqa komsomol yoshlar brigadalari a'zolarining ishlarini alohida qayd etish kerak. Besh yillikning hal qiluvchi uchinchi yili sotsialistik musobaqasida Vichyaslav Migunov, Ubay Muhitdinov boshliq kollektiv hozir 1975 yil yanvar oyi hisobiga ishlamoqda. Birinchi navbati ishga tushirilishiga hissa qo'shgan mehnat qahramonlari binokorlar va montajchilarning hammasida ulug'vor niyati ya'ni besh yillikning to'rtinchi yilida ham fidokorona mehnat qilish va ikkinchi to'quv fabrikasini muddatidan oldin ishga tushirish uchun aniq, muqobil planlar qabul qilib ishlarini olib bordilar.

Buxoro to'qimachilik kombinatining qurilishi "Butunittifoq yoshlar qurilishi" deb e'lon qilindi. Yozgi ta'tillarda viloyat va respublika yoshlari quruvchilarga yordamga kelib, qurilish maydonida madad bo'ldilar. Yozgi oylarda qurilish maydonida 10-12 ming nafar ishchi o'z mehnatlari bilan qatnashganlar [11: 1102-1104].

Fidokorona mehnatlari bilan komsomol shon-shuhrati yilnomasiga yana bir oltin sahifani bitayotgan zarbdor qurilish yoshlari chindan ham har kun, har soat mardlik, fidokorlik namunalari ko'rsatdilar. Yozning eng qizg'in kunlaridagi partiya va hukumat topshirig'ini muddatidan oldin bajarishga qat'iy ishonch bildirdilar. Ip-yigiruv fabrikasining 60 ming dastgohini 1973 yil 20-dekabr gacha ishga tushirish muhim vazifa deb belgilandi. Zarbdor qurilishda dong taratgan Shavqi

Gadoyev boshliq o'n bir kishidan iborat komsomol yoshlar brigadasi a'zolari qurilish maydonida, ajoyib tashabbuslari bilan hammani hayratga soluvchi bu brigada yoshlari shanba bo'lishiga qaramay, ishga chiqib, tushgacha bir kunlik normani bajargan. *"Brigada yangi tashkil etilgan paytlarda, ya'ni bundan yeti-sakkiz oy oldin yigitlarning ko'pchiligi biron kasbga ega emas edi. Hozir esa, ularning hammasi ikki-uch kasbni o'zlashtirib olgan. O'n bir kishidan to'qqiztamiz Toshkent politexnika Instituti umumtexnika fakultetida o'qiyapmiz"*, - deb Shavqi Gadoyev fikrlarini bildiradi "Yosh Leninchi" gazetasining maxsus muxbirining "Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi" jarayonlarida olib borgan suhbatlarida.

1973 yil aprel oyidan o'tgan olti oy mobaynida uch yuzdan ortiq yoshlar komsomol yo'llanmalari bilan zarbdor qurilishga kelishdi. Buxoro shahar komsomol komitetining murojaatiga javoban 112 nafar student qurilishda uch-besh oydan ishlab berdi. Shahardagi pillakashlik fabrikasi komsomollarining tashabbusi bilan 60 dan ortiq yigit qiz quruvchilar bilan baravar ter to'kishdi. Ularning ko'pchiligida dastlabki paytlarda malaka va mahorat yetishmaydi. Shuning uchun kadrlar malakasi, ularning mahorat va malakalarini muttasil oshirib borish komsomol tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri edi. G'isht teruvchi A.Saidov, kranchi Yuriy Grebnyov, gruppа komsomol tashkilotchisi S. Lukyanov, Azim Sandov bu sohada "UNR-987" qurilish tashkilotining ijobiy tajribalarini gapirib berdi: qurilish obyektlarida ko'pchilik yoshlarning ishi yurishmasdi, tuzukroqlari ham bittagina kasbni bilardi, xolos. Komsomollar maslahatlashib, yoshlarni tajribali ishchilarga biriktirib qo'yishga qaror qilishdi. Bu taklifni kattalar ham ma'qullashdi. Malakali ishchilar yoshlarga o'z mahoratlarini o'rgatishga rozi bo'lishdi. Natijada tez orada Oleg Braman, Ural Gusmanov kabi anchagina yoshlar aralash kasblarni egallab olishdi. *"Shu yoshlardan tuzilgan komsomol yoshlar kompleks brigadasi inshootlar poydevoridan boshlab to pardoqlashgacha bo'lgan hamma ishlarni bemalol bajarishadi, komsomol gruppalari faoliyatini kuchaytirish ishini jonlantirish, yoshlarning umumanta'lim, siyosiy va iqtisodiy bilim darajalarini oshirish kabi muhim masalalar bo'yicha foydali takliflarni o'rtaga tashlashdi"*, - "Yosh Leninchi" gazetasi maxsus muxbirining "Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi" jarayonlarida olib borgan suhbatlarida [12,13,14,19: 778-783, 116-119, 36-39, 26-31].

N.Seleznyov "Soyuzlegprompuskonaladka" trestining sozlovchisi 1973 yil Buxoro haqiqati gazetasida "Uskunalar ishga soz" maqolasida Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi alohida ahamiyatga ega, lekin uni uskunalar bilan ta'minlash yoki uskunalarni soz holatda ishga tushirishning ma'suliyati kattaligini aytib o'tgan. Maqolada ta'kidlanishicha, N.Seleznyov Oshdagi ip-gazlama kombinati, Kemerovo va Namangandagi shoyi va kostyumbop gazlamalar, Blagoveshchenskdagi paxta yigiruv fabrikalari dastgohlarini ishga sozlashda qatnashgan, endilikda Buxoro ip-gazlama kombinati yigiruv dastgohlarini sozlashda qatnashganligini faxr bilan tilga olgan. Kombinatga Ul'yanovsk, Kamishin, Ivanova, Toshkent, Farg'ona shaharlaridagi uchastkalaridan 80 dan ortiq yuksak ixtisosli mutaxassislar kelgandi. Hali fabrikada binokorlik ishlari tugamagan, montaj ishlari avj pallasida bo'lishiga qaramay o'rnatilgan dastgohlarni peshma-pesh sozlashga kirishdik. 17-noyabrdayoq xomaki dastgohlar tuhfa qildi. Birinchi navbatga taalluqli barcha uskunalar ishga sozlandi. Hamkasblarimdan B.Tixonov, B.Stepanov, Yu.Zaysev, V.Selyutin, Yu.Ushken, A.Raskov, A.Subbotinlar bajargan ishlarni Davlat qabul komissiyasi tomonidan yuksak baholagan [17-18: 142-144, 5-8].

Juda katta va misli ko'rilmagan ish 8 oy ichida bajarilgan. 1974 yil 11-fevralda "Pravda" gazetasida Ittifoq hukumatining quruvchilarga, montajchilarga va ishlab chiqaruvchilarga tabrigi e'lon qilindi. Ahamiyatlisi shundaki, Buxoroda Toshkent politexnika institutining filiali ochilgan bo'lib, unda tahsil olib malakasini oshirgan talabalar o'z amaliyotlarini shu to'qimachilik korxonasi olib bordilar.

Toshkent yengil sanoat institutining ilk qaldirg'ochlari ya'ni bitiruvchilari 1974-yildan Buxoro to'qimachilik sanoat korxonasi ish faoliyatlarini boshladilar. Bundan tashqari Farg'ona texnika bilim yurtida tahsil olib kelgan to'quvchi – yigiruvchi mutahassislar ham shu korxonada ishlay boshladilar. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, korxonaga kelib ishlaydiganlarning ko'pchiligi tumanlardan kelib ishlaydigan ishchilar bo'lib, ularni yotoq joy masalasi qiynar edi. Bu masala ham viloyat rahbarlari tomonidan tez amaliy yordam choralari ko'rildi. Korxonada ishchilari uchun yotoqxona, uy-joylar, tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy madaniy yordam ko'rsatish muassasalari, maishiy xizmat uylari bunyod etildi [15,16: 30-36, 1162-1168].

1975–1976 yillarda matoga gul bosib, rangli matolar ishlab chiqarish amalga oshirila boshlandi. Ittifoqdan mutaxassislar kelib, tajribalar almashinildi. 1977 yildan boshlab rangli bo'yoqli matolar va momiq sachoqlar ishlab chiqarila boshladi. Qurilish va qayta ta'mirlash ishlari davom etmoqda edi. Ko'pgina stanoklar eski holatida keltirib o'rnatilgan edi. Jihozlarni yangilash va pardoqlash ishlarini olib borish uchun joylar yetishmasdi. Shuning uchun 1979 yil kombinat qurilishining ikkinchi navbati boshlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

1981 yilda kombinaning 57 600 dona kamerali pnevmomexanik yigiruv mashinalari o'rnatilgan 2-yigiruv fabrikasi ishga tushdi. 1982 yilda 2100 dona STB-330 to'quv dastgohlari o'rnatilgan 2-to'quv fabrikasi ishlab chiqaradigan to'qimalarning katta qismi xom to'qima bo'lganligi kombinatning tarkibida mato parlozlash fabrikasi ham ishga tushirilishini taqozo etdi. Shunday qilib, Buxoro ip gazlamalar ishlab chiqarish kombinatida katta hajmda halqa tukli sochiqbob va ommabob (chit, byaz) enli va ensiz gazlamalar dunyo standartiga to'g'ri keladigan qilib ishlab chiqarildi. 1985 yilda gazlamani pardoqlash korxonasi ham to'qimalarni oq, artirish sexi qurilishi boshlandi. 1988 yilda pardoqlash korxonasi qurilishi tugallanib, ishga tushirildi. Shunday qilib, Buxoro ip gazlamalari kombinati tarkibida 2 ta yigiruv, ip bo'yash, 2 ta to'quv, gazlamalarini pardoqlash korxonalari va tikuv sexi tashkil etildi. Buxoro kombinatining asosiy majmuasidan tashqari viloyatning turli shaharlarida korxonaning shahobchalari ham tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Reference)

1. Аҳмад Хўжаев // Суръат ошмоқда. Бухоро ҳақиқати 1972 йил, 8-сентябр.
2. R.X.Maksudov, I.S.Nayitov To'qimachilik tarixi (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2015. – B-109.
3. Баротов С. “Меҳнат яратган муъжиза”. (Бухоро тўқув фабрикаси қурилиши тарихидан лавҳалар) – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2018 йил.
4. М.Ашуров // So'ngi dovon Бухоро ҳақиқати 1973 йил апрел
5. Qodirov A. Kombinatsion qurilishidagi oshxona pazandasi //Xizmatimizni ayamaymiz . Buxoro haqiqati 1972 yil 10 avgust.
6. “Ёш Ленинчи” газетасининг махсус мухбирининг телефон орқали суҳбати Бухоро ип-газлама комбинати қурилишида // Тўқимачилик гиганти “Ёш Ленинчи” 31-dekabr 1973-yil, Dushanba.
7. Саидвалиев С. (Ёш Ленинчи газетаси махсус мухбири) // Сарҳисоб ва истиқбол ўйлари. Ёш Ленинчи., 1973 йил 3-avgust.

8. Ahmadovna J.N., Xolmamatovna U.F., Bahriddinovna T.G. From the history of the culture of farming in the Oasis Of Lower Zarafshan. Central asian journal of social sciences and history 2021, 2 (2), 74-80.
9. Тўраева Г.Б., Ўтаева Ф.Х., Жумаева Н.А. О.А. Сухарева тадқиқотларида бухоро тарихи ва этнографиясининг ўрганилиши. Scientific progress 2021,1 (6), 1010-1018.
10. Мубинов М.А. Дипломатия среднеазиатских ханств с государствами Востока в своей борьбе за независимость.// SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601. Page.778-783.
11. Мубинов М.А. Дипломатические и посольские отношения среднеазиатских ханств с Османской империей // ВЕСТНИК ХОРЕЗМСКОЙ АКАДЕМИИ МАЪМУНА –1/2021. Стр.116-119.
12. Мубинов М.А. Из истории внешних отношений Бухарского эмирата (XVIII-XIX века).// ЗНАНИЯ И НАУКА В СУРХАНДАРЬЕ №1/2020. Стр.36-39.
13. Ражабов О.И., Болтаев А.Х. XX аср 40-йиллари Бухорода ташкил қилинган илмий экспедиция. Ўтмишга назар | Взгляд в прошлое | Look to the past №6 (2021) -Б.30-36. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-6>
14. Rajabov O.I., Boltayev A.H. Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal'alar xususida. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: pp1162-1168
15. Болтаев А.Х. Бухарские коллекционеры // Россия – Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. Сборник материалов международной научной конференции. – Челябинск: ЧГИК. 2019. – С. 142-144.
16. Болтаев А.Х. Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда СН Юренив ёзишмаларининг ўрни. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари, 2018. №1. -Б. 5-9.
17. Mubinov M.A. Diplomacy of the eastern states and central asian khanates in the struggle for independence.// CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. VOLUME: 02 ISSUE: 05 | MAY 2021 (ISSN: 2660-6836). P.26-31.

**CERTIFICATE OF
PUBLICATION**

THIS CERTIFICATE IS AWARDED TO

Utaeva Feruza

This certificate is awarded to **Utaeva Feruza** for publishing the research paper titled "*PRESS COVERAGE OF THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF THE BUKHARA TEXTILE INDUSTRY*" in «**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND SOCIAL SCIENCES**» (SJIF-5.264)

SJIF = 5,264; IFSIJ = 6,323

Volume 1, Issue 4 (2021)

EDITOR-IN-CHIEF
Bakhtiyor Turayev



**INTERNATIONAL JOURNAL OF PHILOSOPHICAL STUDIES AND
SOCIAL SCIENCES**

ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039

<http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>

Vol 1, Issue 4 2021